

MILLIY O'ZLIK VA TIL:O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH YO'LI
ILMIY RAHBARI: KAMOLA RAXMATJONOVA ABDUMUTAL QIZI
ILMIY DARAJASI: FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA
DOKTORI(PhD)

IMOMBERDIYEVA LAZIZA G'AYRAT QIZI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI JANUBIY OSIYO TILLARI
VA ADABIYOTI INSTITUTI
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH
:HIND TILI YO'NALISHI 1-BOSQICH TALABASI

E-MAIL: lazizaimomberdiyeva15@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o`zbek tilining o`ziga xos xususiyatlari, tarixiy ildizlari va bugungacha bo`lgan rivojlanish bosqichi to`g`risida so`z boradi. Unda o`zbek tilining kelib chiqishi , uning alifbosidagi o`zgarishlar , so`zlarning tuzilishi hamda o`zbek tilining jamiyatdagi o`rni va uning rivojlanish i haqida faktik materiallar asosida ma`lumot beriladi.

KALIT SO'ZLAR: Kirill alifbosi , yanaliq yozuv, Sovet davri, Rossiya Imperiyasi.

АННОТАЦИЯ: Настоящая статья посвящена рассмотрению уникальных особенностей узбекского языка ,его исторических истоков и этапов развития до современности. Особое внимание уделяется происхождению узбекского языка ,изменениям в его алфавите , структуре слов, а также роли и эволюции узбекского языка в обществе на основе фактических материалов.

КЛЮЧЕВОЕ СЛОВО

Кириллический алфавит , яналиф, Советский период ,Российская империя.

ANNOTATION

The present article examines the distinctive features of Uzbek language , it's

historical origins, and the stage of it's development up to present time . it

provides information based on factual materials about the origin of the
Uzbek

language , the changes in it's alphabet , the structure of words , as well as the
role

of the Uzbek language in society and it's development.

KEYWORDS

Cyrillic alphabet, Yanalif script, Soviet period, Russian Empire.

KIRISH

Til- millatning ma`naviy boyligi , uning tarixiy xotirasi va madaniyatini saqlab

qoluvchi vositadir. O`zbek tili o`zbek xalqining qadimiy tarixi, boy adabiyoti va

madaniyatiini mujassamlashtirgan milliy til sifatida alohida o`rin tutadi.

Mustaqillik yillarda o`zbek tiliga bo`lgan e`tibor yanada oshdi va uning nufuzi

yuksalib bormoqda.

O`zbek adabiy tilining o`tmishi Miloddan avvalgi yillarga borib taqaladi .

O`zbek

tili Oltoy tillar oilasining turkey tillar tarmog`I qarluq guruhiga kiradi. Ushbu til

rivojlanish bosqichining ilk davrlarini mil.avv.gi davrlardan to X asrgacha bo`lgan

davrlargacha hisoblash mumkin. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkey tili deb

yuritiladi. Xalq og`zaki ijodi bo`lmish O`rxun- Enasoy yodgorliklar shu tilda yaratilgan .

XI-XIV asrlarda amalda bo`lgan tile ski turkey til deb ataladi. Mahmud

Qo`shtariyning “Devonu-lug`tit turk” , Yusuf Xos Hojibning “Qutadug`u bilig”,

Ahmad Yugonkiyning “Hibatul haqoyiq” , Xorazmiyning “Muhabbatnama” ,

Rabg`uziyning “Qissasi Rabg`uriy ” asarlari eski turkey tilda yozilgan

XV-XIX asrlarda qo`llangan til esa eski adabiy o`zbek tili deb atalgan . Atoyi,

Skkakiy,Sayfi Saroyi, Lutfiy , Alisher Navoiy , Bobur , Mashrab , Turdi Maxmur,

Gulxaniy, Muqimiy , Furqat , Zavqiy va boshqa ko`plab ijod qilgan shaxslarning

asarlari shu tilda yozilgan . O`zbek xoni Muhammad Shayboniyxon (1451-1501)

o`zbek tilida g`azal ruboiylar ham bitgan , uning “Boxrul Xudo” nomli dostoni

va

o`g`li Muhammad Temurga atab yozgan o`gitlari bizgacha yetib kelgan.

XIX asrning 2-yarmidan hozirgi davrgacha ishlatalib kelinayotgan til hozirgi o`zbek

adabiy tili deb ataladi. “Turkiston viloyati gazetasi ” chiqa boshlagan vaqt dan to

hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o`zbek adabiy tilining ishlariga

kiradi. O`zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til kabi ko`rinishni boshladi va XIII

asrda eski o`zbek adabiy tili shakllanib bo`ldi.

O`rganishlar natijasida ma`lum bo`ldiki , o`z bek tilida yozish uchun ko`plab

alifbolardan foydalanilgan . Har bir tilni o`rganishdan oldin kishi o`sha tilning

alifbosini bilishligi lozim. Ene qadimgi o`zbek tilida O`rxun-Enasoy yodgorligi

yozilgan .1929-yilgacha o`zbek tili uchun arab yozuvidan foydalanilgan .1920-

yilning o`rtalariga kelib o`zbek tilidagi arab yozuviga keng hujum boshlandi.

Arab

yozuviga qoloqlikning, savodsizlikning, dindorlikning sababchisi qilib
ko`rsatildi .

Bu voqeadan so`ng 1929-1930-o`quv yilidan boshlab o`zbek tili yangi lotin

yozuviga, ya`ni yanalif yozuviga o`tilde. Natijada o`zbek xalqining asrlar
davomida

yaratib kelingan hamda chop etilgan ilmiy ,badiiy va falsafiy adabiyotdan uzulib
qoldi .1940-yil Stalinning buyurug`I bilan majburan kirill yozuviga
o`tilde.1940-

yildan 1991-yilgacha o`rta hisob bilan o`zbek tilida 50ming nomda 50 million

nusxada kitoblar chop etilganini hisobga olinsa, o`zbek xalqi yana qancha

adabiyotdan uzoqlashishi mumkinligi ayon bo`ladi. 1993-yil O`zbekiston rasman

lotin yozuvini yana qaytadan amalda qo`llashni boshladi. Bunda Turkiya lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosi ishlab chiqildi. 1995- yilda turk alifbosidagi

harflar hozirgi o`zbek alifbosidagi “o”, “g”, “sh”, “ch” ga o`zgartirilib, bugungi

hundagi ko`rinishiga keltirildi. Hozirda O`zbekistonda ta`lim muassasalarida lotin

yozuvidan foydalaniladi. Shunga qaramasdan Yoshi kattalar va O`zbekistondanm

tashqarida yashaydigan o`zbeklar hali ham kirill yozuvidan foydalanishadi.

Hozirgi o`zbek tilida lug`at boyligi 5 irmoq negizida tuzilgan:

1.Eski turk tili , ya`ni so`zlari

2.Arab tili so`zlari

3.Fors tili so`zлari

4.Ikki tilli so`zлari

5.Ovropa tillari so`zлari

Eski turk tili (eski o`zbekcha yoki chig`atoy tili) bugungi kunda o`zbek tilinng

asosiy irmog`idir. Jumladan : kishi, ot, qo`l, oyoq kabi so`zлari shu irmoq tarkibida

hisoblanadi. Arab so`zлari o`zbek tiliga VII-VIII asrlarda kirib kela boshlaydi.

Bu

arablarining shu davrda O`rta Osiyoni bosib olishlari bilan bog`liq . Arab so`zлari

birinchi o`rinda e`tiqod sababi orqali o`zbek tiliga kirgan .Jumladan: vaqt, soniya,

fursat, daqiqa. O`zbek tiliga Fors so`zларining kirib kelishi forslarning bosqinchilik

yurishlari , savdo aloqalari va o`rta chog`dagi barcha fors geografiyasiga yaqin

davlatlarning o`z ichki davlat ishlarida fors tilini qo`llaganligi ,shunngdek

O`zbekiston tuproqlarida bor bo`lgan davlatlar bilan bog`liq. Masalan:
dasturxon,

hamroh, parda, poyabzal, oftob kabi so`zlar fors tilidan kirib kelgan. Ikki turli

so`zlar ikki tildan, eski turkcha bilan forscha, eski turkcha bilan arabcha, arabcha

bilan forscha so`zlarining ulanishidan va ba`zida bu 3 tildan so`z qo`shimchalar

ulanishidan yasalgan. Misol tariqasida: ishxona, bebosh, ko`zoynak,

qabilaboshi .Rus tilidan o`zlashgan so`zlar o`zbek milliy tilining shakllanishi va

rivojlanishida rus millatining tili g`oyat katta rol o`ynaydi. Rus xalqi bilan

o`zbek

xalqi orasida yaqin aloq, ayniqsa, ruslarning iqtisodiy va madaniy ta`siri rus tilidan

Ruscha va Yevropa tillariga oid so`zlarning o`zbek tiliga kirib kelishiga sabab

bo`ldi. Rus tilidan o`zlashgan so`zlar : fabrika, gimnaziya , doctor, shapka va shu

kabi so`zlar. Demak , tarixiy yurishlar natijasida o`zbek adabiy tiliga bir nechta

tillarning qo`shilishi oqibatida yangi so`zlar paydo bo`lgan .

XX asr boshlarida taxminan 2-4 million kishi o`zbek adabiy tilida gaplashgan .

O`zbek tili dunyo miqqosida 30-40-o`rinda turgan. Sovet davriga kelib o`zbek

adabiy tilida gaplashuvchilar soni 7-8 millionni tashkil etdi. Aholi tabiy o`sish

va

Sovet Ittifoqi davrida urbanizatsiya tufayli ko`paydi. O`zbek tili SSRning tillaridan

biri sifatida tan olindi. Reyting bo`yicha 25-30 oralig`idagi o`rinni egalladi. S Sovet

Ittifoqidagi mintaqaviy til sifatida o`zbek tili ta`lim va ommaviy axborot

vositalarida qo`llab quvvatlandi va Markaziy Osiyoda ta`siri oshdi.

Takidlanishicha, hozirgi kunga kelib yer yuzida o`zbek tilida so`zlashuvchilar soni

60 milliondan oshdi. Xorijiy davlatlardagi 50 dan ortiq oliy o`quv yurtlarida o`zbek

tili o`rgatilmoqda. Bularga misol tariqsida AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy

Koreya, Turkiya, Hindiston , Xitoy kabi davlatlarni keltirish mumkin.

O`zbekiston

bilan siyosiy iqtisodiy diplomatik va strategik munosabatlari bo`lganligi tufayli

o`zbek tili o`rganiladi.

XULOSA

O`zbek tili o`zining ko`p asrlik tarixiy ildizlari va madaniy qatlamlari bilan o`zbek

xalqining milliy o`zligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Til taraqqiyoti

davomida yuz bergan alifbodagi o`zgarishlari, leksik, gramatik tizimdagи

yangilanishlar hamda jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarning kengayishi uning

doimiy rivojlanishi jarayonini yaqqol namoyon etadi. Bugungi globallashuv

sharoitida ham o`zbek tili nafaqat milliy qadryatlarni ifodalovchi , balki ilm-fan,

ta`lim , madaniyat va xalqaro muloqatda faol qo`llanilayotgan zamonaviy til

sifatida o`z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Demak, O`zbek tili tarixiy meros

va zamonaviy taraqqiyot o`rtasida mustahkam ko`prik bo`lib, keljakda ham

o`zining rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org>

2. <https://oyina.uz>

3. daryo.uz

4. the Constitution of Afghanistan. Article

5. Shimoliy va Janubiy o`zbeklar uchun etnolog hisobot